

TABIAT VA INSON O‘RTASIDAGI MUNOSABAT

ВЗАИМООТНОШЕНИЯ МЕЖДУ ПРИРОДОЙ И ЧЕЛОВЕКОМ

THE RELATIONSHIP BETWEEN NATURE AND HUMANS

Abdug‘afforova Durdona Inomjon qizi

O‘zbekiston Respublikasi Surxondaryo viloyati Bandixon tumanidagi

26-maktab 7-B sinfo‘quvchisi

E-mail: inomjont777@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqola bugungi kundagi dolzarb mavzulardan biri bo‘lgan tabiat va inson o‘rtasidagi munosabatlarga qaratilgan. Shuningdek, maqola davomida tabiatning ulug‘ ne‘mat ekanligi, uni asrash ham iymondanligi turli manbalar va hayotiy tajribalar orqali yoritib berilgan. Xulosa o‘rnida esa tabiatni asrash dunyoviy va diniy miqyosda ko‘rilib, yangi texnologiyalar asrida bu muammoga yechim topish ilgari surilgan.*

Kalit so‘zlar: *Tabiat, ekologik muammolar, insoniyat, hadislar hikmati, isrofgarchilik, tejamkorlik.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается одна из актуальных тем – взаимоотношения природы и человека. Также в статье подчёркивается, что природа – это великое благо, и что её сохранение – это также вопрос веры, основанный на различных источниках и жизненном опыте. В заключение рассматривается проблема сохранения природы в светском и религиозном аспектах, а также предлагается решение этой проблемы в эпоху новых технологий.*

Ключевые слова: *Природа, экологические проблемы, человечество, мудрость хадисов, расточительность, бережливость.*

Abstract: *This article focuses on the relationship between nature and man, which is one of the most relevant topics today. Also, the article highlights the fact that nature is a great blessing and that preserving it is also a matter of faith through various sources and life experiences. In the conclusion, preserving nature is viewed on a secular and religious scale, and finding a solution to this problem in the age of new technologies is put forward.*

Keywords: *Nature, ecological problems, humanity, the wisdom of hadiths, wastefulness, thrift.*

Tabiat– bu nafaqat yashash uchun suv, havo, oziq-ovqat bilan ta'minlovchi, balki ko'rganda go'zal manzarasi bilan insonni maftun aylovchi hamda qalbg'a sokinlik tuhfa qiluvchi ózgacha borliq. U Yaratganning eng oliy ne'matlaridan biri sanaladi. Ne'matlari o'xshashsizligi, sanoqsizligi, turfa xilligi va aqlbovar qilmas go'zalligi bilan o'ziga rom qiladi. Tabiat va inson o'rtasidagi munosabat uzoq va murakkab tarixga borib taqaladi. Dastlab odamzot Alloh taolo tirikjonlar uchun nozil qilgan tabiat ne'matlariga hurmatda bo'lgan, ne'matlardan shukronalik ila foydalangan. Ammo yashash tarzi o'zgarishi sababli insonlarning ehtiyoj ko'rsatkichlari ma'lum miqdorda oshmoqda, aholi soni ham yildan yilga ortib bormoqda. Shuningdek, insonlarga kundalik foydalanishlar soni kamlik qila boshladi. Keyin inson tabiat ne'matlariga óz nafsini qondirish yólida hujum qila boshladi. Ochkóz, nafs kór qilgan kózlari me'yoridan ortiq sarf- xarajatlarni kórmay qóydi. Ko'pchilik hayvonlarning nobud bo'lish sababi shundaki, ular faqat yovvoyi tabiatda hayot kechirishadi. Insoniyatning qaramog'ida yashash ular uchun to'g'ri kelmaydi. Insonlar butun Yer yuzini egallab, faqatgina o'zlari uchun yaxshi yashash tizimini rivojlantirib bormoqda. Lekin bu sistema ekologik muammolarni keltirib chiqarayotgani yolg'on emas. Ekologik muammo--bu odamzotning va hayvonot dunyosining, jamiki Yer sayyorasining og'ir halokati bilan yakunlanuvchi muammodir. E'tiborli jihati shundaki, yuqorida ona tabiatning barcha maxluqotlarga o'z bag'rini ochib, ne'matlari bilan siylagani ta'riflab o'tilgan edi. Lekin insoniyat bularga munosib javob qaytarmadi, ya'ni o'ziga berilgan mo'jizaning bag'riga pichoq urdi va qilayotgan ishlarining mazmunini anglab yetmayapti. Bularga qachongacha shunchaki beparvolarcha ko'z yumib ketaveriladi, axir?! Agar Yer sayyorasi xo'rlanishda davom etsa, u halok bo'ladi. U o'linga yuz tutsa, butun insoniyat, hayvonot, sayyoradagi hayot o'z nihoyasiga yetmaydimi? !Odamzot shu darajada razillikka boryaptiki, o'z nafsining qurboni bo'lish tomon ildam-ildam, mag'rur qadam ila ketmoqda.

Qisqa va lónda qilib aytganda, zamon rivojlangani sayin tabiat yeb-bitirildi va bu davom etib kelmoqda... Jumladan odamlarning kundalik mashg'ulotiga aylandi:

Daraxtlarni kesish;

Hayvonlarni o'ldirish;

Yerosti boyliklaridan tiklab bo'lmas darajada ko'p foydalanish;

Atrof-muhitni zaharli gazlar va chiqindilar bilan ifloslantirish;

Suvni isrof qilish.

Bularning barchasi insonlarga yot bo'lmagan holatlar, shunday emasmi? Ushbu tanish jarayonlar ortida qanchadan qancha o'simlik va hayvon turlari yo'q bo'lib ketish yoxud Qizil Kitobga kiritish arafasida yotibdi. Arafasida emas, ba'zilar allaqachon yo'q bo'lib ketdi ham. Shu kabi muammolar tufayli munosabatlarni bir maromda ushlash dunyo

miqyosidagi eng dolzarb mavzulardan biri bo‘lib qolmoqda... Qur’oni Karimda Alloh azza va jalla shunday marhamat qiladi:

“Yeb- ichingiz, lekin isrof qilmangiz! Zero, u isrof qiluvchilarni sevmas”[1]

Insonlarga ne‘matlar taqdim qilinar ekan, ularga shartlar ham qo‘yildi. Ya’ni, ular orasida bittasi– isrof qilish man etildi. Demak, Allohning rizosi uchun tejamkorlik ham kerak.

“Har bir inson ne‘matlardan soroqqa tutiladi”[2]

“Va sizlarga mo‘jizalar, yomg‘irni nozil qilishi, Yerning o‘zidan o‘sislar berishi ham Uning (Allohning) alomatlaridandir. Albatta, bunda (Allohning) alomatlarini tushunadigan qavm uchun alomatlar bor”[3]

Ushbu oyatlar tabiatda Alloh yaratgan ne‘matlarni ko‘rishga, tafakkur qilishga chaqiradi. Tabiatni asrashga oid hadislar hikmatiga ham bir sidra ko‘z yugurtirilsa foydadan holi bo‘lmaydi.

“Yer meros emas, balki ijaraga olingan”(4]

Yer insoniyatga besh kunlik dunyo uchun yashash joyi sifatida berildi. Ayonki, bu dunyo abadiy emas. ijarachi yashash joyida doim qolavermaydi. Yer sayyorasi ham biz insonlarga ijara kabi ekan.

“Kim daraxt eksa, u kishiga ekilgan daraxtdan har qanday foyda keladi” [5]

Agar bitta daraxt ekilsa, undan ko‘p foyda keladi. Masalan, chiroy bag‘ishlaydi, o‘sha muhitning havosini tozalaydi va eng asosiysi savob bo‘ladi. Bundan tashqari ham biz bilmagan afzalliklari bor.

“Sizlardan biringiz suvni isrof qilmasin, hatto daryo sohilida bo‘lsa ham.”[6]

Mazkur hadis va oyatlarning asosiy ildizi ne‘matlarni tejab, asrab avaylash. Hadislarda, Qur’oni Karimda tabiat asralishi ma’qullanyaptimi, demak daraxt ekish, tejamkorlik, ona Yerdan asrab-avaylab foydalanish, bu barchasi iymondan ekan. Ming afsuslar bo‘lsin, bugungi kunda beqiyos ne‘matlarga hurmat bajo etmaslik avj olmoqda. Tabiatning murakkab tizimi Alloh taoloning naqadar chevarligi, rahmati, hech bir namunalarsiz yaratuvchanligining namunasi demakdir. Ne‘matlardan hech biri ortiqcha emas. Har biri o‘zining o‘xshashsiz xususiyatlari bilan ko‘zga tashlanadi. Mana yaqqol namuna:

- Daraxtlar o‘zidan inson va hayvonot uchun zarur bo‘lgan kislorodni chiqarib, zararli karbonat angidridni o‘z vujudiga yutadi;
- Quyosh hayotimiz davomida isituvchi va Yer yuzini ravshanlikka to‘ldiruvchi muhim yulduz hisoblanadi;
- Yomg‘ir Yer yuzini suv bilan ta‘minlovchi tomchilar yig‘indisi;
- Meva-sabzavotlar insoniyatni kerakli oziqlar bilan ta‘minlaydi.

Yuqorida qisqa qilib ta‘rif berildi. Lekin in‘omlar cheksiz. Ularning son-sanog‘ini olib bo‘lmaydi. Sanoqlilari aks ettirildi, xolos...

Tabiat– bu jonli va jonsiz mavjudotlar yig‘indisi. Har bir daraxt, har bir qush, o‘simliklar, hayvonlarning , qir-u adirlar, tog‘- u toshlar bular shunchaki tasodif emas. Bular Yaratganning behad donoligi, chevarligi. Tabiat tafakkur uchun eng asosiy omil. Shu qadar mo‘jizakor ne‘matlar oyoqosti qilinishi ham javobsiz qolmayapti. Insonlardan zulm ko‘rsatilgach, tabiat ham ularga qahr qilyapti. Maqola sarlavhasi ham “Tabiat va inson o‘rtasidagi munosabat” deb nomlanishi ham bejizga emas. Buni aniqroq tushuntirmoq uchun munosabatlar dialogdek qolipga solindi:

TABIAT INSONGA BERDI:

Sanoqsiz ne‘matlar, yashash uchun barchasi muhayyo bo‘lgan mo‘jizakor borliq. Jumladan, yerosti va yerusti boyliklari, suv, havo, musaffolik...

INSON TABIATGA QAYTARDI:

Atrof- muhitni, musaffo suvni ifloslantirdi, kuniga o‘n minglab yoki unganda ko‘p daraxtlarni qurbon qildi. Yerosti boyliklarini me‘yoridan oshiq qazib olish natijasida muammolarni yuzaga keltirdi. Azon qatlamini zararli nurlar va havo ta’sirida yemira boshladi. Isrof qilish odatiy holga aylandi.

TABIAT INSONGA JAVOB QAYTARDI:

Tabiiy ofatlar ko‘rsatkichi yildan yilga ortib va xavfga to‘lib boryapti. Suv toshqinlari, zilzalar o‘chog‘iga aylangan hududlar ko‘paymoqda. Azon qatlami yemirilishi natijasida Yer yuziga zaharli quyosh nurlari tushib, yashash tarzini qiyinlashtirib, qiyinchiliklar tug‘diryapti. Ko‘plab qazib olish konlaridagi boyliklarni ishchilar jilovlay olmay qolishyapti. Hayvon va o‘simliklarga jiddiy zarar yetgani uchun ular yo‘q bo‘lib ketyapti. Issiq havo ta’sirida bakteriyalar mutatsiyaga uchrab yangi kasalliklar epidemiyasi va pandemiyasi avj olmoqda. Insonlar ham halok bo‘lmoqda...

E’tiborli jihat shundaki, inson tabiatga qanday zulm o‘tkazsa Ona tabiat ham unga munosib javob qaytarib kelmoqda. Odamzot esa bunga ahamiyat bermay o‘z nafsini yolida qurbon bo‘lish tomon mag‘rur, ildam-ildam qadamlar ila ketmoqda. Quyida esa O‘zbekiston Respublikasi viloyatlaridagi bir-biridan farqli o‘laroq, barchasi birdek xavfli bo‘lgan ekologik muammolardan namunalar :

Qoraqalpog‘iston – Orol dengizining qurishi, sho‘rlanish, chang-to‘zonlar, sog‘liq muammolari;

Farg‘ona– neft va sanoat chiqindilari, havo va tuproqning og‘ir metallar bilan ifloslanishi;

Toshkent– sanoat chiqindilari, havo ifloslanishi;

Sirdaryo– Sardoba suv ombori fojiasi, suv resurslariga zarar;

Qashqadaryo– sug‘orish tizimi yomon, tuproq sho‘rlanishi kuchli;

Namangan– suv tanqisligi, chang to‘zonlar, kimyoviy moddalarning ko‘pligi;

Xorazm– suvga talab yuqori, sho‘rlanish, Orol muammosiga yaqinlik;
Buxoro– suv resurslari kamaygan, iqlim o‘zgarishi kuchaygan,
Samarqand– sug‘orish yomon, yerlar sho‘rlangan, ekologik barqarorlik past;
Navoiy– tog‘ - kon sanoat chiqindari, atmosfera ifloslanishi;
Andijon– aholi zichligi sababli chiqindilar ko‘p, havoning ifloslanishj yuqori;
Surxondaryo– iqlim o‘zgarishidan eng ko‘p zarar ko‘radigan hududlardan biri. [7]

<https://www.iisd.org/publications/report/uzbekistan-state-of-the-environment>

Yuqoridagi ekologik muammolar faqatgina bitta mamlakat miqyosida olindi. Butun Yer yuzidagi bu kabi xavflar qancha? Insoniyat birgina o‘zi uchungina yaxshi yashash muhitini shakllantirmoqchi bóldi. Lekin bir haqiqatni fahmlashga qunt qilmayapti. Agar shu holat davom etaversa nafaqat butun odamzot, balki Yer yuzi halokatga yuz tutmaydimi?! Bunga qattiq chora kórish lozim. Quyida esa ayrim yechimlar taqdim qilindi:

- Havo zararlanmasligi uchun elektromobillarni ko‘paytirish;
- zaharli gazlar chiqaruvchi zavodlar o‘rniga ATM elektrostansiyalarini ko‘chirish;
- Atrof-muhitning osoyishtaligini targ‘ib qilish uchun chiqindilarni ajratib, qayta ishlash texnologiyalarini joriy qilish;
- Qishloq xo‘jaligi uchun ajratilgan yer maydonlarini sug‘orishda tejamkorlik maqsadida tomchilatib sug‘orish tizimini ishga tushirish.
- Sho‘rlagan yer dalalariga sho‘rga chidamli, sho‘rni singib oluvchi o‘simliklarni ekish;
- Daraxtzorlarni kengaytirish, o‘rmonzorlashtirish ishlariga ko‘proq urg‘u berish.
- Isrof qiluvchilar, belgilanmagan joylarga chiqindi tashlovchilar va jamiki tabiat uchun zarar keltiruvchilarga jarimalar summasini kengaytirish va ularga yana boshqa zarur jazo va chora-tadbirlarni qo‘llash;

4. Maktab va maktabgacha bo‘lgan ta‘lim muassasalari, oliy ta‘lim o‘quvchilari uchun tez-tez tadbirlar qilib, avlodlarning ongiga tabiatparvarlik ruhini singdirish.

5. O‘quvchilarga tabiat muhofazasi uchun kerakli bo‘lgan texnologiyalarni ishlab chiqishda ko‘mak berish va imkoniyatlar yaratish.

- Yerosti boyliklarini qazib olish ishlarini ma‘lum miqdorda kamaytirish;
 - Aholi o‘rtasida har hafta "MAHALLA OBODLIGI" loyihasini ishga tushirish. Bu loyihada hashar qilinib, mahalla obodonlashtiriladi;
 - Qurib borayotgan suv havzalarini hayotga qaytarish choralari kuchaytirish.
 - Daraxt ekkan, obodonlashtirishda óz hissasini qóshgan kishilarni rag‘batlantirish.
- Shunda kóngillilar soni kópayishi mumkin.

“TABIATNI ASRAYLIK”

Yerni bizga hech kim meros qilmagan
Foniy dunyo uchun ijara uyin
Isrof qilish nima ajdod bilmagan
Tóqlikka shóxlikmi, qilyapmiz óyin?!
Suvga isrofkormiz, xuddiki tekin
Usiz kókarmaydi bitta ham ekin
Dunyoga bir nazar tashlaylik, sekin
Qalbaki bólmasin, iltimos lekin!
Daraxtlarni asrab- avaylash yóq hech
Kózimizni ochaylik, bólmasidan kech
Keyin pushmon qilish, ótmaydi afsus
Harakat qilaylik, bólmaylikda sust.
Hayvonlar qirilib ketmoqda Yerlik
Ko‘plariga sabab brakonyerlik
Vijdonni saqlabon chuqur o‘ylaylik:
“Gunohi urarmi– bu go‘zal borliq?”
Atrof to‘la ekan– chiqindi uyum
Ixtiro qilaylik– foydali buyum
Chiqindidan ajib narsa yasaylik
Tabiat chun biz ham foyda beraylik.
Maylida yasashga bólmasak qodir
Ekaylik daraxtlar, gul-u kóchatlar
Shoshaylik halokat bólmasdan sodir
Boshlarga yog‘ilsin turfa ne‘matlar.
Shu zayilda o‘tsin hayot tarzimiz
Tabiat chun qolmas biror arzimiz
Tabiat ham qilmas, bizga hech qahr
Aksincha ko‘rsatar chiroyli mehr.

Xulosa: Xulosa qilib aytadigan bólsak, tejamkorlik bu amallarning oliysi, shuni doim yodda tutishimiz kerak. Biz bahra olayotgan ne‘matlar avlodlarga bus-butun, yemirilmagan holda yetkazilishi shart. Zolimlarcha, avlodlarni bu in‘omlardan bebahra aylash, yaxshi odamlarga xos xislat emas. Zamonaviy texnologiyalar taraqqiy etgan, ilgarilagan bir paytda bu muammoga yechim topish uchun tashabbuskorlik va birlashish, tabiat muhofazasi uchun

harakatni ayamashlik yetarli. Chunki bugungi davrda deyarli hamma narsaning iloji topilmoqda. Hadislar hikmatiga hamda suralarga bir sidra kóz yugurtirib, angladikki, tabiat muhofazasi amallarning oliysi ekanligini. Muallifning bularni bitishdan maqsadi– ona tabiatimizni asrab- avaylovchilar sanog‘ini sal bólsada, kengaytirish edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A’ rof surasi 31-oyat;
2. Takosur surasi 8- oyat;
3. Rum surasi 30:24;
4. Sahih Muslim;
5. Sahih al- Bukhari;
6. Musnad Ahmad;
7. <https://www.iisd.org/publications/report/uzbekistan-state-of-the-environment> .